

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

№ 2 (May, 2018)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro, 2018

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

№ 2, 2018

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 4 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Negmatovich – iqtisod fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

To'laganov Abduqobil Abdunabiyeovich, texnika fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Choriyev Abdushukur Choriyevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor

Jabborov Azim Meyliqulovich, psixologiya fanlari doktori, professor

Sunnatova Ra'no Izzatovna, psixologiya fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Morogin Vladimir Grigoryevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Xakassiya davlat universiteti, Rossiya)

Belobrikina Olga Alfonsasovna, psixologiya fanlari nomzodi, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Chuprov Leonid Fedorovich, psixologiya fanlari nomzodi, RAE professori (Abakan, Rossiya)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari nomzodi, RAE professori (Kiyev, Ukraina)

Sidorova Lyudmila Pavlovna, falsafa fanlari nomzodi, dotsent ("Oliy iqtisodiyot maktabi" milliy tadqiqot universiteti (Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoiri Ne'matovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisod fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisod fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

MUNDARIJA-СОДЕРЖАНИЕ-CONTENTS

Sh. Ahmedova. Buxorolik olimlar ustod S.Ayniy haqida.....	7
G. Zaripova, S. Sobirova. 2018-yil 15-aprel — atoqli adib Sadridin Ayniy tavalludining 140 yilligiga bag'ishlov.....	12
Sh. Hayitov, Sh. Mirzoyev. Файзулла Хўжаевнинг инсонийлик ақоиди ва сиёсий фаолиятига айрим чизгилар.....	15
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	
А.Исманова. Ота-оналарнинг педагогик маданияти—диний экстремизм ва терроризмнинг олдини олиш усули.....	18
Г.Эргашева. Ўқитувчи муомаласида қўлланиладиган таъсир кўрсатиш усуллари.....	21
Г.Раҳимова. Ўқувчиларнинг ахборот воситаларидан фойдаланиш маданиятини шакллантириш.....	24
Х.Умаров, Ш.Юлдашев. Баркамол шахсни шакллантиришда илмий дунёқарашнинг тутган ўрни..	28
С.Самадова. Баркамол авлодни тарбиялашда аждодлар меросининг аҳамияти.....	31
Г.Баймуродова, А.Махмудов, В.Фефелов. Рейтинг как механизм развития профессиональной компетентности учителя.....	34
Т.Катричева. Интеграция в процессе познания как общенаучное понятие.....	40
М. Краснополянская. Методологические подходы к исследованию проблемы развития профессиональной компетентности преподавателя дополнительного образования в послевузовский период.....	43
N. Baxriyeva. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muomala madaniyati va uning qoidalari.....	46
N. Qodirova. Maktabda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qituvchi va o'quvchi munosabati.....	50
F. Ramazonova. Yoshlarni tarbiyalashda muzeylarning o'rni.....	53
Sh.Olimov, O.Suyunov. O'qitish jarayonida hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasi.....	56
Ш.Нурмуродова. Особенности применения активных методов обучения для развития образования	60
A.Alimov. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish.....	64
М.Юлдашева. Заонавий таълим муҳитида педагогик фаолият ва унинг инсонпарвар йўналганлиги.....	68
Т.Олимов. Фуқаролик жамиятида заонавий ўқитувчининг имиджи.....	71
F. Norbo'tayev. O'smirlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yo'llari.....	74
H. Axadova. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarni "ommaviy madaniyat" ta'siridan himoyalash.....	78
Ф.Музафарова. Ўқитувчининг ҳамкорликдаги педагогик жараёни лойиҳалаш маҳоратини ривожлантириш.....	81
D.Safarova, R. Begmatov. Bolalar va o'smirlarda uchraydigan turli xildagi duduqlanishlarning psixologik sabablari.....	85
Ў. Шамсиев. Мактабгача болалик психологияси.....	88
А.Лукмонов. Ҳомилалар аёллардаги салбий эмоционал кечинмаларни бартараф этишда психокоррекция муолажаларининг аҳамияти.....	92
A.Nazarov, H.Jalilov. Globallashuvning milliy ma'naviyatga ta'siri masalalari.....	98
M. Bafayev, S. Boltayev. Qarilik — ijtimoiy-psixologik fenomen.....	101
З.Ахмедова. Аҳолининг турли катламларида психологик хизмат кўрсатишнинг асосий йўналишлари.....	107
О.Авлаев. Муаммоли таълим методларининг талаба интеллектига таъсири.....	110
В.Бозорова. Заонавий педагогик технологияларни олий таълимда самарали қўллаш йўллари.....	114
О. Қаҳҳоров. Хорижий давлатларда таълим тизимини бошқариш бўйича илғор тажрибалар ва улардан фойдаланиш йўллари.....	118
А. Хўжаев. Олий таълим муассасаси профессор-ўқитувчиларининг таълим сифатини таъминлашдаги роли.....	126
Н. Халилова. Талабаларда рефлексияни ривожлантиришнинг психологик имкониятлари.....	130
BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM	
S. Xodjayeve. Xalq og'zaki ijodida o'z-o'zini tarbiya masalalari.....	135
N. Saidova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematikadan o'quv materialini o'zlashtirish darajasini o'rganish.....	138
H. Toшева. Бошланғич таълим жараёнида ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини жадаллаштиришнинг педагогик асослари.....	142
B. Jamilova, Y. Po'latova. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'rganish vositalari.....	146
S.Ro'ziyeva. Modelashtirish texnologiyasi – ўқитиш жараёнига заонавий ёндашув сифатида.....	149
H. Raxmatov. 3-sinf matematika darsligidagi mantiqiy masalalar ustida ishlash.....	154

Gulbahor ZARIPOVA

Buxoro davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Sabohat SOBIROVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim kafedrası
o'qituvchisi

Maqolada muallim Sadriddin Ayniyni hayoti va ijodi haqida fikr yuritiladi. U yashab o'tgan davr va undagi voqealar hamda yozuvchining hayotida erishgan ilmiy va ijodiy tadqiqotlaridagi yutuqlari qayd etilgan.

Tayanch tushunchalar: *Soktare qishlog'i, o'rtahol dehqon, o'zbek va tojik tili (zullisonayn), Tojikiston Fanlar Akademiyasi akademigi va birinchi Prezidenti, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy a'zosi, Tojikistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor unvoni, "Tojikiston Qahramoni" unvoni sohibi.*

В статье размышляется о жизни и творчестве С. Айни. Отмечаются исторические факты того времени: как жил Садриддин Айни, его научные, творческие достижения в жизни.

Опорные понятия: *село Соктаре, средний дехканин, узбекский и таджикский язык, Первый Президент и академик академии наук Таджикистана, почетный член академии наук Узбекистана, заслуженный научный деятель Таджикистана, доктор филологических наук, звание профессора, обладатель награды «Герой Таджикистана».*

In article is reflects on the life and work of Sadriddin Aini. The historical facts of that time are noted: how Sadriddin Aini lived, his scientific and creative achievements in life.

Supporting concepts: *the village of Socrates, the ordinary peasant, Uzbek and Tajik languages, the First President and Academician of Tajikistan Academy of Sciences, an honorary member of Uzbekistan Academy of Sciences, Honored Scientist of Tajikistan, Doctor of Philology, Professor that holder the award "Hero of Tajikistan".*

XIX asrning so'nggi choragida tug'ilib, XX asrning o'rtalariga qadar yashab ijod etgan Sadriddin Ayniy o'zbek va tojik adabiyotlari taraqqiyotiga muayyan hissa qo'shgan zullisonayn yozuvchidir. U mansub bo'lgan yozuvchilar avlodi xalq va jamiyat hayotidan uzoqlashib qolgan mumtoz Sharq adabiyotiga yangi

to'liqin berishga, uni yangi tarixiy davrning g'oyalari bilan boyitishga intildi. Sadriddin Ayniy (Sadriddin Saidmurodov) XX asr o'zbek va tojik adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan atoqli adib, olim va jamoat arbobi Sadriddin Ayniy Buxoro amirligiga qarashli G'ijduvon tumanining Sektare qishlog'ida 1878-yil 15-aprelda o'rtahol dehqon oilasida dunyoga kelgan. Olti yoshidan maktabga qatnay boshlagan. Sadriddin Ayniy o'zining asarlarini o'zbek va tojik tilida yozgan. 1951-54-yillarda Tojikiston Fanlar Akademiyasi akademigi va birinchi Prezidenti, 1943-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy a'zosi, 1940-yilda Tojikistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, 1948-yilda filologiya fanlari doktori, 1950-yilda professor unvonlari berilgan. 1998-yilda esa Tojikiston Qahramoni unvoni sohibi, qator sobiq orden va medallar sohibi bo'lgan buyuk yurtdoshimizdir.

Hurmatli Ustoz Sadriddin Ayniyning hayotlari va ijodlariga nazar tashlasak. 1884-1887-yillarda eski maktabda, keyin bir qator madrasalarda: Buxorodagi "Mir Arab" 1890-1891-yillarda, "Olimxon" 1892-1893-yillarda, "Badalbek" 1894-1896-yillarda, "Hoji Zohid" 1896-1899-yillarda "Ko'kaldosh" 1899-1900-yillarda madrasalarida tahsil olgan. Unga Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe", Xoja Marog'iyning "Ibrohimbekning sayohati" hamda jadid ma'rifatparvarlarining asarlari uning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ahmad Donish va ozarbayjon yozuvchisi Hoja Marog'iyning asarlari va Sadriddin Ayniyning birinchi g'azali "Guli surx" ("Qizil gul") 1895-yilda yozilgan.

Kalkutta, Bog'chasaroy, Ufa, Orenburg, Qozon singari shaharlarda nashr etilgan gazeta va jurnallar bilan tanishish, ayniqsa, Fitratning "Munozara", "Sayyoh hind qissasi" singari asarlarini mutolaa etish bo'lajak yozuvchining dunyoqarashida inqilobiy o'zgarishlarni vujudga keltirdi. U amirlik tuzumining chiriganini, mamlakatni boshqarish usulini yangilash, demokratik islohotlar o'tkazish va xalq ommasini ma'rifatlashtirish zarurligini sezdi. Sadriddin Ayniy ana shu tarzda yosh buxoroliklar harakatiga kelib qo'shildi va o'zbek jadid adabiyotining yorqin namoyandalaridan biriga aylandi.

Sadriddin Ayniy o'smirlik yillarida turmush tebratish uchun jismoniy mehnat bilan ko'proq shug'ullangan bo'lsa, ijtimoiy ongida ro'y bergan o'zgarishlar tufayli keyinchalik aqliy mehnat yordami bilan kun kechira boshlaydi. Chunonchi, u tatar maktabida tarjimon bo'lib xizmat qiladi. Shu asnoda muayyan malaka hosil qilgan Sadriddin Ayniy do'sti Mirza Abdulvohid bilan birga uning hovlisida maktab ochadi. Sadriddin Ayniy Buxoroda yangi usuldagi maktab ochadi, ular uchun o'quv qo'llanmalar, ommani ilm-ma'rifatga chaqiruvchi she'r va hikoyalardan iborat "Tazhib us-sibiyon" ("Bolalar tarbiyasi", ba'zi manbalarda "Yoshlar tarbiyasi" deb ham yuritiladi) degan o'qish kitobini 1909-yilda yaratadi. Yosh muallimning bu dastlabki pedagogik ishlari o'sha davr uchun katta voqea bo'lgani sababli qattiq qarshilikka uchraydi. "Imtihonlar boshlangan palлада, – deb yozadi u tarjimai holida, – katta mullalar ig'vo boshlab, bolalarni kofir qiladi, deb bizning maktabimizga qarshi chiqdilar, ular amirga murojaat qilib, maktabimizni yoqtirdilar va amirga qarashli bo'lgan kishilar bu bilan ham qanoatlanmay, Mirza Abdulvohidni olomon qilib o'ldirmoqchi bo'ldilar. Ular Buxorodan qochib ketdilar, men bir muncha vaqt yashirib yurdim". Bunday ta'qiblar uzoq davom etdi. S. Ayniy "Yosh buxoroliklar" harakatida ham faol qatnashadi.

1917-yil fevral inqilobidan keyin Markaziy Osiyoning turli shaharlarida istiqlol uchun kurash harakatlari boshlanib ketdi. Sadriddin Ayniy amirlikka qarshi kurashgani uchun zindonga tashlandi. 1917-yil fevral inqilobidan so'ng esa Sadriddin Ayniy faol ijtimoiy harakatdan uzoqlashganiga qaramay amir tomonidan yetmish besh tayoqlik jazoga hukm qilinadi. U "Oktabr to'ntarishi" yillarida o'zbek va tojik tillarida davlatkor she'rlar, marshlar yaratib, ularni "Inqilob uchqunlari" to'plamida 1923-yil nashr etdi. Sadriddin Ayniyning badiiy ijodga qiziqishi talabalik yillarida boshlangan. U dastlab Sifliy (Past), Muhtojiy va Jununiy (Telba), o'n sakkiz yoshida esa "Ayniy" taxallusi bilan ijod qila boshladi.

Sadriddin Ayniy 1917-yilga qadar kechgan ijodida, boshqa jadidlar singari maqolanasizlik (publitsistika) bilan ham samarali shug'ullandi. Uning "Oyna" jurnalida chop etilgan "Har bir millat o'z tili ila faxr etar" degan maqolasi muallifning 1915-yildayoq Turkiston xalqlari o'rtasida o'zbek tilining mavqei ko'tarish vazifasini o'z oldiga qo'yganini namoyish etdi. U shu davrda nazariy xarakterdagi ishlar bilan band bo'lib qolmay, fors-tojik tilida "Buxoro sharif", o'zbek tilida "Turon" gazetalarini nashr etishning tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. "Ushbu ikki gazeta, – deb yozgan edi Sadriddin Ayniy, – Italiya va Bolqon muho-rabasi asnosida nashr bo'lg'onlaridan har bir narsadan xabarsiz Buxoro aholisini tarixdan, siyosatdan, jug'rofiyadan, Ovro'poning umumiy ahvolidan, musulmonlarning halokat chuquriga tushayotganlaridan xabardor qildilar. Yoshlar boshiga adabiyot, qalam va o'qimoq fikrlari tushdi. Otalar eslariga bola tarbiyasi va o'qitmoq hollari keldi".

Yozuvchi 1922-yilda "Buxoro jallodlari" qissasini yozdi. Unda amir-amaldorlarining dahshatli jabra-zulmini, gunohsiz kishilarni o'rta asr qiynoqlari bilan qatl etishlarini, 1927-yilda esa "Odina" qissasini ki-

tobxonlar e'tiboriga taqdim etdi. Bunda esa mehnatkash xalqning og'ir qismati va fojiali hayotini jonli tasvirlab berdi [2].

Sadriddin Ayniyning dastlabki "Qullar" romani 1934-yilda Toshkentda o'zbek tilida, 1935-yilda esa Dushanbeda tojik tilida nashr qilindi. "Qullar" romanining bosh qahramoni tarixni harakatga keltiruvchi kuch – xalq va uning sodiq farzandlaridir, degan xulosaga yetaklaydi. Tarixning ma'lum bir davrini qamrab olgan bu roman xalq tarixini, uning hayoti va kurashini haqqoniy aks ettirgan.

Sadriddin Ayniyning "Sudxo'ring o'limi" qissasidagi bosh qahramon Qori Ishkamba jahon adabiyotidagi Plyushkin yoki Gobsek kabi mumtoz obrazlar bilan bir qatorda turadi, uni ustoz 1937-yilda yozdi [2].

Ikkinchi jahon urushi yillarida Sadriddin Ayniy "Marshi intiqom", "Muqanna qo'zg'oloni", "Temur Malik" kabi vatanparvarlik ruhida ilmiy va badiiy asarlarini yaratdi. U xalq ijodidan, folklor asarlaridan keng foydalangan holda "Yetti boshli dev" asarini ham yaratdi.

Muqanna va Temur Malik boshchiligidagi xalq qo'zg'olonini aks ettiruvchi adabiy-tarixiy ocherklar yozdi. U to'rt qismdan iborat 1949-1954-yillarda yozgan "Esdaliklar"ida Buxoroning o'tmish hayoti va o'sha davr ijtimoiy-madaniy muhitini yoritadi [3]. "Esdaliklar"ning tojik tilidagi nashri quyidagi to'rtlik bilan boshlanadi:

In xona zi g'ishti ko'hna andoxtaam,
Dar vay jashne zi raftagon soxtaam.
To ahli zamoni mo bidonand, ki man,
Yak umri Javon ba chy rah boxtaam.

Bu to'rtlik haqida buxorolik olimlarimiz professorlar Rahim Vohidov va Mels Mahmudovlar o'zlari-ning "Ustod Sadriddin Ayniy saboqlari" nomli asarida bu misralarni to'liq ochib berganlar, bunda: "Bu xonani (ya'ni "Esdaliklar" binosini men moziy voqea-hodisalaridan) men ko'hna g'ishtdan yasadim, Unda men ketganlar (vafot etganlar, marhumlar) uchun bir to'y (jashn, bazm) barpo qildim. Bizning zamonamiz odamlari bilsinlarki, men yoshlik umrimni nimalarga sarf etganman... Ikkinchi misradagi "jashn" (to'y, bayram) ham ko'chma ma'noda kelayotir: Tahlil qilayotganimiz shoh asarda dunyodan bemurod ketgan, umr guli bemavrid xazon bo'lgan yuzlab insonlar haqida gap boradi. Aniqrog'i, "Esdaliklar" ularning porloq xotirasiga qo'yilgan muqaddas va bezavol yodgorlikdir", – deb juda o'rinli tahlil keltirganlar [6]. Olimlar Ayniyning keyingi ikki misralarini ta'rif etarkanlar unda ustodning kelajak avlodga saboq berish maqsadida ularni muqaddas Vatanni sevis, qadrlash, o'zining aziz betakror umrini avaylash-asrash, uni behuda zoye etmaslikka, ya'ni hayotini o'zidan yaxshi nom qoldirishga undaganligini kitobxonga yaqqol ko'rsatadilar. Yana bu asarda ustozlar R. Vohidov va M. Mahmudov "Go'yo bugun ham ul zoti mukarram O'zbekistonu Tojikistonning baxtiyor avlodiga "Esdaliklar" sahifalari orqali murojaat qilib, istiqlolni, erku ozodlikni qadrlash, shu yo'lda jon fido etishga undayotganday tuyuladi, bizga", – deb ta'rif berganlar [6].

Sadriddin Ayniy o'zbek va tojik adabiyoti tarixi yuzasidan katta ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Uning o'rta osiyolik buyuk shoir va olimlar — Rudakiy, Sa'diy, Ibn Sino, Vasfiy, Bedil, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi siymalar haqida yozgan ilmiy asarlari nihoyatda qimmatli. Unga 1948-yilda filologiya fanlari doktori, 1950-yilda professor ilmiy darajasi berilgan. Adib 1943-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi hamda Tojikiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi va 1951-1954-yillarda Birinchi Prezidenti etib saylangan. Bir necha yillar davomida Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining professori va Tojikiston Fanlar Akademiyasi tashkil topgan kundan boshlaboq uning Prezidenti sifatida xizmat qilgan. U 1954-yilning 15-iyunida Dushanbe shahrida vafot etgan.

Adabiyotlar

1. Sadriddin Ayniy. Yetim. Povest. – Toshkent: "Yosh gvardiya", 1963. – 136 bet.
2. Sadriddin Ayniy. Asarlar 8 tomlik. 4-tom. – Toshkent: "Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti", 1965. "Odina", "Eski maktab", "Sudxo'ring o'limi". – 430 bet.
3. Sadriddin Ayniy. Asarlar 8 tomlik. 7-tom. – Toshkent: "Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti", 1966. "Esdaliklar". IV qism. – 312 bet.
4. Sadriddin Ayniy. Tanlangan ilmiy asarlar. – Toshkent: "Fan", 1978. – 336 bet.
5. Sadriddin Ayniy. Eski maktab. – Toshkent: "Yulduzcha", 1988. – 240 bet.
6. Rahim Vohidov, Mels Mahmudov. Ustod Sadriddin Ayniy saboqlari. – Toshkent: "Fan", 2003. – B. 136-137.